



AQLIY KAMCHILIKLARI MAVJUD O'QUVCHILARDA HISSIY - IRODAVIY SOHA RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

Melibayev T.

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: murakkab nuqson, hissiy-irodaviy soha, bilish jarayonlari, aqliy faoliyat, intellektual rivojlanish, alohida yordamga muhtoj, korreksiya, nutqiy imkoniyat.

Ключевые слова: комплексная инвалидность, эмоционально-волевая сфера, познавательные процессы, мыслительная деятельность, интеллектуальное развитие, потребности в специальной поддержке, коррекция, речевые способности.

Key words: complex disability, emotional-volitional sphere, cognitive processes, mental activity, intellectual development, needs special support, correction, speech ability.

Резюме:

Aqli zaif o'quvchilarda hissiy - irodaviy soha rivojlanishi sifatlarining tarkibiy tuzilmalarini atroflicha tahlil qilib, har kandy psixologik tuzilma o'zini o'zi nazorat qilish ob'ekti sifatida namoyon bo'lishi mumkinligini e'tirof etilgan.

Резюме:

Подробно проанализировано развитие эмоционально-волевой сферы у студентов с задержкой психического развития и признано, что любая психологическая структура может проявляться как объект самоконтроля.

Summary:

The development of the emotional-volitional field in students with mental retardation has been thoroughly analyzed and it has been recognized that any psychological structure can be manifested as an object of self-control.

Aholining ajralmas bir bo'lagi bo'lmish alohida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, sog'lom, barkamol qilib tarbiyalash ularning shaxsiy huquqlarini ijtimoiy himoyalash, ta'lim tarbiya jarayonini mos ravishda tashkil etish, sog'lom bolalarga har tomonlama teglashtirish, natijada jamiyat taraqqiyotida o'z o'rinlarini topishlarini ta'minlashdek dolzarb masalalar mamlakatimiz istiqolga erishgandan buyon hech qachon davlatimiz siyosatidan chetda qolgan emas.

O'z rivojlanishida meyordan chetlashgan, shu jumladan aqlan orqada qolgan bola psixikasi tuzilishi juda murakkab. Maxsus psixologiya asoschilaridan



biri L.S.Vigotskiyning nazariy qoidalariga muvofiq bolada birlamchi nuqson va ikkilamchi asoratlarni ajrata bilish kerak. Aqli zaif bolalarga po'stloq faoliyatining to'laqonli emasligi, mo'ljalga olish faoliyatining bo'shligi, nerv jarayonlarining inertligi, himoya tormozlanishiga ortiqcha moyillik xosdir. Oligofren bolalar psixik faoliyatida aniq aks etgan kamchiliklar bilan birga bu bolalarga rivojlanish jarayoni asosi bo'lib xizmat qiluvchi ayrim ijobiy imkoniyatlar ham xos. O'qituvchilar maxsus aqli zaif bolalar maktabida korreksion ishni tashkil qilib aynan shu imkoniyatlarga tayanadilar.

XX asrning 90-yillaridan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruxga bo'ladilar: engil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Chet el psixologlari bola intellektual koeffitsientini aniqlashga asoslanadilar. Ma'lumotlarga ko'ra, engil aqli zaiflikda 70 ga teng, o'rtachada 70 dan 50 gacha diapozonda, chuqurda 25 dan 0 gacha.

Aqli zaif bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda endogen (ichki) va ekzogen (tashqi muhit) omillarini ajratish mumkin). Aniqlanishicha aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular tug'ma aqli zaif soniga kiradi. Biroq buzilishlarni yuzaga kelishida onaning yuqumli kasalliklari (masalan; qizilcha, xomilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilarni xaddan ziyod iste'mol qilish, onaning endokrin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim rol o'ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida, tug'riq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari ma'lum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta ro'l o'ynaydi.

Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanishi yo'nalishini tormozlaydi, nuqsonlarni korreksiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o'quv - tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni sezilarli qiyinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvaffaqiyatli ish olib borish e'tibor va keng bilim doirasiga ega bo'lishni talab qiladi.

Murakkab nuqsonli bolalar alohida muammoni yuzaga keltiradilar. Ular maxsus o'rganilishi kerak. Lekin bu turdagi tadqiqotlar hali juda kam.

Aqli zaif o'quvchilar alohida toifa bolalarni tashkil etadi. Ular boshqa turdagi maxsus maktab, o'quvchilaridan farq qiladilar. Biroq har bir VIII turdagi maktab o'quvchilari tarkibi turlicha. Shuning uchun Rossiyada etakchi bolalar psixologlari tomonidan aqli zaif bolalar tasnifi ishlab chiqilmoqda. Odatda ular klinik patogenetik prinsipga asoslanadilar. (D.N.Isayev, 1982, M.S.Pevzner, 1959, G.YE.Suxareva 1965 va boshqalar).

Tadqiqot metodologiyasi. Aqli zaif o'quvchilar bilan olib boriladigan psixologogik-pedagogik metodikalar shaxsning xissiy - irodaviy sohasi va

o'z-o'zining baholashi, xarakter hamda individual tipologik xususiyatlarini psixodiagnostika qilish metodikalarining avvalo o'rganishga yo'naltirilgan.

Tahlillar va natijalar. Aqli zaif o'quvchilarni o'zi haqida bilish – bevosita o'z-o'zini takomillashtirishga kafolat beradi. Qayg'uli tasavvurlar, befoyda hayajon, kechinmalar, real bohalashga arzimaydigan fikrlar, foydasiz qo'zg'alishlarga bermaslikka o'rgatadi.

Aqli zaif o'quvchilarda xissiy - irodaviy sohasini psixologogik-pedagogik korrektsiyalash masalalariga qarab, uning quyidagi turlarini farqlash mumkin: o'yinlar yordamida ruhiy tiklash, oilaviy, neyropsixologik, shaxsiyatni rivojlantirishni ruhiy tiklash va boshqalar.

Ruhiy tiklash ta'sirlari tabiatning yo'nalishiga qarab ikki qismga bo'linadi: simptomatik va kazual, tiklash ta'sirlariga qarab direktiv va podirektiv turlarga bo'linadi.

Bir qator mualliflar ruhiy tiklashni tashkillashtirishni uch turga bo'lishni tavsiya qilishadi: umumiy, xususiy va maxsus ruhiy tiklash.

Umumiy ruhiy tiklash deganda – bolaning ijtimoiy muhitini mutadillashtiradigan umumpedagogik tadbirlar tushuniladi. Unga bolaning yoshi va shaxsiy qobiliyatlariga mos psixofiziologik va emotsional mashqlarni muvofiqlashtirish kiradi. Umumiy ruhiy tiklash vazifalari ruhiy gigiena, ruhiy profilaktika, pedagogik etika va deontologiya vazifalari bilan qo'shilib ketadi. Ular tarbiyaviy o'quv tadbirlarni tashkillashtirish jarayonida hal etiladi.

Xususiy ruhiy tiklash – bu ruhiy pedagogik ta'sirlar yig'indisidir, ya'ni bu maxsus ishlab chiqilgan ruhiy mashqlar. Musiqa bilan davolash, oilaviy ruhiy tiklash kabi tadbirlar tizimidir. Maxsus ruhiy tiklash – «bu bola yoki bir gurux bolalar bilan bola shaxsiyatini shakllantirishda erishiladigan eng samarali aniq vazifalar o'tkaziladigan uslubiy va tashkiliy ishlar usullari jamlanmasi hisoblanadi» Maxsus ruhiy tiklashning asosiy maqsadi – noto'g'ri tarbiyaning asoratlarini to'g'irlash.

Shunday qilib, aqli zaif o'quvchilarda xissiy - irodaviy sohasini psixologogik-pedagogik korrektsiyalash umumiy, xususiy va maxsus muolajalar yordamida amalga oshiriladigan ruhiy ta'sir usuli sifatida o'rganiladi. Bunday bo'linish, nisbiy bo'lib, bolalar rivojlanishining shaxsiy xususiyatlari va ruhiy vazifalaridagi nuqsonlarni tuzatishga qaratilgan ruhiy ta'sir jarayoni sifatidagi ruhiy tiklanishning asosiy talabiga javob bermaydi. Ruhiy tiklash jarayonida ruhshunos umumiy xususiy va maxsus usullardan foydalanishi mumkin.

Aqli zaif o'quvchilarda ruhiy tiklash usullarini turlarga ajratganda dizontogenez ko'rinishlariga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Dizontogenezning bir turi alohida holda juda kam uchraganligi sababli, bunday bo'linish nisbiy



ekanligini ko'rsatib o'tish lozim. Masalan: buzilgan rivojlanish, ruhiy kam rovojanish bilan yoki to'xtab qolgan ruhiy rivojlanish bilan; noto'g'ri ruhiy rivojlanish ko'pchilik hollarda ruhiy rivojlanish to'xtab qolgan paytda yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, ruhiy tiklash jarayonlarini aniq bir turdagi bemorlar guruhiga qo'llanilishiga qarab guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlarga ruhiy yordam ko'rsatish amaliyotida ruhiy tiklash quyidagi guruhlarga ajratgan ma'qul.

1. Bola xissiy rivojlanishini ruhiy tiklash.
2. Sensor – pertseptiv va intellektual faoliyatni ruhiy tiklash.
3. Shaxsiy irodaviy ruhiy tiklash.
4. Shaxsiy rivojlanishini ruhiy tiklash.

Ruhiy tiklash guruxlarga ajratishning bu usuli bolalar ruhiy va jismoniy rivojlanishini barcha turdagi buzilishlari mazmuni va ruhiy yo'nalishlarini aniq ko'rsatadi.

Ruhiy tiklash ta'sirlarini o'tkazishda qo'yiladigan maqsad va vazifalar ruhiy rivojlanishining nazariy modellari bilan bevosita bog'liq bo'lib, shular yordamida aniqlanadi.

Ruhiy tiklash nazariy modellari juda xilma – xildir. Vatanimizdagi psixologiyada rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlar bilan o'tkaziladigan ruhiy tiklash ishlarida maqsadlar, bolaning kattalar bilan birgalikdagi harakatlarda ishlatiladigan faol faoliyat jarayonlari sifatida bola ruhiy rivojlanishi qonunlarini tushinishi bilan aniqlanadi.

O'z navbatida, bu erda ruhiy tiklash maqsadlari yo'nalishlari aniq ko'rsatilgan.

1. Bola yoki o'smir rivojlanishi ijtimoiy holatni mo'tadillashtirish.
2. Bola faoliyatining har xil turlarini rivojlantirish.
3. Yangi, yosh ruhiy tuzilmalarni shakllantirish.

Kognitiv yo'nalish alohida etiborni talab qiladi, asosan ravojlanishida muammolari bo'lgan o'smirlar ruxiy tiklash da kognitiv yo'nalishda birinchi navbatda ruhiyatning o'rganish tizimlariga aohida etibor qilinadi, shaxsga, uning tuzilishiga va fikrlash qobiliyatiga tayaniladi. Aqli zaif bola tomonidan, xulq atvorini o'zgartirgan holda o'zini, va atrof muhitni qabul qilishni o'zgarishlari ruxiy tiklash mashg'ulotlarida bosh vazifa hisoblanadi. Kognitiv yo'nalishda ruxiy tiklash.ning ikki turi farqlanadi: kognitiv-tahliliy va kognitiv-xulqiy. Birinchi holda asosiy vazifa – aqli zaif bolaga tushunarli bo'lgan va u mustaqil ishlay oladigan ruhiy muammoning modelini tuzishdan iborat bo'ladi. Ikkinchi holda esa, Aqli zaif bola oldida turgan muammolarni hal etishda eng



kerakli bo'lgan hulq atvor modelini tuzishdan iborat bo'ladi; boshqa so'z bilan aytganda hayotdagi real holat to'g'risidagi noto'g'ri fikrlarni tekshirish taklif etiladi. Kognitiv yo'nalish asosida ko'plab psixotexnik usullar yaratilgan, ular ruhiy rivojlanishda muammolari bo'lgan bolalar va o'smirlarni ruxiy tiklash da muvaffaqiyat bilan ishlatilishi mumkin.

Xulosalar. Shunday qilib, ruxiy tiklash muammosiga turlicha nazariy yondoshishlar har xil ruxiy tiklash texnologiyalarining rivojlanishiga yordam beradi. Ruhiiy tiklash aqli zaif bolalar ruxiy tiklash texnologiyalarini ishlab chiqishda alohida nazariy yo'nalishlarga tayanmasdan, balki ko'pgina nazariy yo'nalishlarga asoslangan ruhiy ta'sir usullarini ishlatish tavsiya etilishini alohida ta'qidlash lozim. alohida ruxiy tiklash texnologiyalarini ishlab chiqish aniq ruhiy vazifalarga bog'liq bo'ladi, ular o'z navbatida esa bolada va uning ota-onasidagi muammolarning rivojlanish darajasi bilan aniqlanadi.

Adabiyotlar:

1. Зоҳидов М. Болалар психологияси. Тошкент, «Ўқитувчи» 2002. 310 б.
2. Катаева А.А., Е.А.Стребелева. Дошкольная олигофренопедагогика. – Москва. «Владос» 2001. С.150.
3. Львов М.Р., В.Г.Геретский, О.В.Сосновская. Методика преподавания русского языка в начальных классах, М., «Академия», 2004 г. –с. 372 .
4. Мамедов К.Рухий ривожланиши сушлашган болалар психологияси. Тошкент.1997.
5. Маллер А.Р. Ребёнок с ограниченными возможностями: Кн. для родителей – М., 1996. – с.4-6.